

ESHITISHDA NUQSONI BO`LGAN BOLALAR UCHUN YAKKA MASHG`ULOTLARNING AHAMIYATI

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi

Farg`ona davlat universiteti Maktabgacha ta`lim kafedrasи Maxsus pedagogika yo`nalishi o`qituvchisi.

Iminjonova Dilnozaxon Elmurod qizi

Farg`ona davlat universiteti Maktabgacha ta`lim kafedrasи
Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) yo`nalishi talabasi.

Annotatsiya:

Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalar ta`lim olish jarayoni o`ziga xosligi bilan ajralib turadi va bunday bolalar uchun yakka mashg`ulot ikkilamchi nuqsonni bartaraf etishda yordam beradi. Yakka mashg`ulotlarda bolalarning og`zaki nutqi shakllanadi, eshitish qobilyati rivojlanadi. bolalar ijtimoiy hayotga mostlashtirilib, pedagogik psixologik jihatdan maktab ta`limiga tayyorlanadi.

Kalit so`zlar: yakka mashg`ulot, nutq, pedagogik-psixologik munosabat, didaktik metod, ta`lim.

Eshitish sezgisi va idroki nutqni egallahda muhim rol o`ynaydi. Nutqning aktiv va passiv shakllari eshitish sezgisi va idroki orqali amalga oshadi. Atrofdagilar nutqini idrok qilishning buzilishi nutqning shakllanish imkoniyatini cheklaydi. Agar bunday bola maxsus yondashish va maxsus uslublar bilan o`qitilmasa soqov bo`lib qoladi. Kar bolalar barcha ma`lumotlarni eshitish analizatori ishtirokisiz oladi va bu o`z navbatida ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Me`yorda bolalar kattalar va atrofdagilar nutqini takror-takror eshitib, ularga taqlid qilib uni egallaydi. Eshitmaydigan bola esa ko`rgan narsalarini nomlarini so`z orqali ifodalay olmaydi. Bunday holat Bolani ruhiy jihatdan to`g`ri rivojlanishiga to`squinlik qiladi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalar maxsus muassasalarda o`qiydilar. Mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo`lgan shaxslar uchun samarali uzlucksiz ta`lim tizimi yaratilgan bo`lib, kar va zaif eshituvchi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasining zaruriy sharti hisoblangan birlamchi muammo oqibatlarini bartaraf etish va barcha jamiyatning

barcha sog`lom a`zolari bilan teng darajada ma`lumot olishga imkoniyat beradi. Bunday bolalar maxsus maktab internatlarda tahlil oladi. Karlar internat maktabida mutlaqo eshitmaydigan va gapirmaydigan, eshitish qobiliyatidan 75dB dan ortiq darajada mahrum bo`lgan, kuchli tovushdan ta`sirlanadigan va ba`zi nutq tovushlarini qisman qabul qiladigan bolalar qabul qilinadi. Zaif eshituvchilar internat maktabiga nutq eshitish qobiliyatidan 30dan 75dBgacha mahrum bo`lgan, nutqni 3metr masofadan tushunadigan, eshitish nuqsoni sababli nutqi to`liq rivojlanmay qolgan bolalar va maktabgacha hamda maktab davrida eshitish qobiliyatini yo`qotgan nutqi saqlanib qolgan bolalar qabul qilinadi. Bunday bolalar Respublika, viloyat, shahar xalq ta`limi boshqarmasi tomonidan rashkil etilgan tibbiy psixologik-pedagogik komissiya tomonidan ko`rikdan o`tkaziladi va o`qishga yo`llanma beriladi.

Maktabgacha davrdagi tarbiya xalq ta`limi tiziming poydevori desak mubolag`a bo`lmaydi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muhim ahamiyatga ega, bunday bolalarda;

1. Bilish psixologik jarayonlarini shakllantirish
2. Intellektual faoliyatni shakllantirish
3. Og`zaki nutqni shakllantirish
4. Tabiatni haqida tasavvur va tushunchani shakllantirish

kabi vazifalarni barchasini o`yin, maxsus o`qitish va mehnat jarayonida amalga oshirish kerak. Bolalar bog`chasida surdopedagog bolani hamma kabi mehnat qilishga, muloyimlikka, ozodalikka rioya qilishga o`rgatadi.

Eshitishda nuqsoni bo`lgan shaxslar uchun ona tili-daktil(imo-ishora) tili hisoblanadi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolalarni teng integratsiya qilishni ta`minlash, keyinchalik hayotda o`z o`rnini topish uchun bolajonlarni nutqini shakllantirishga katta e`tibor qaratiladi, bunday bolalarning nutqini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Kar bolada eshitish muammosi chuqurligi sabab u nutqni mustaqil egallay olmaydi. Kar bolalarda olib boriladigan korreksion mashg`ulotlarda tovush tebranishlarini havo-suyak orqali his qildirib, teri tuyish orqali his qildirib farqlash ustida ishlanadi. Og`zaki nutqni shakllantirishda eshituv analizatori-nutqini harakatga keltiruvchi analizatorlar ishtirok etadi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarning og`zaki nutqini rivojlantirish yo`llari muntazam o`rganib borilishi shart Ya`ni eshitish qibiliyatini shakllantirish, psixologik, korreksion pedagogik jihatdan

tayyorgarlik va lug`at boyligini oshirish zarur. Nutqiy materialni idrok qilishning asosiy usuli eshituv orqalidir, yakka mashg`ulotlar davomida materialni besh martta takrorlaganda ham eshitib idrok qila olmasalar o`quvchilarga eshituv ko`rvu taklif qilinadi, keyin esa faqat eshitib idrok qilishga beriladi, shuning uchun eshituv, ko`rvu yordamchi qo`llanma sifatida foydalaniladi. Yakka mashg`ulotlarda nutqning daktil formasidan faqatgina o`quvchi nutjni ayta olmay qolgandagina ishlatiladi.

Nafas va ovoz mashqlarini qo`yishda asosan uch usuldan foydalaniladi.

1. Taqlid usuli.
2. Mexanik usul.
3. Aralash usul.

Taqlid usuli o`z navbatida to`rtga bo`linadi; eshitish asosida taqlid qilish, ko`rish asosida taqlid qilish, eshitib ko`rish asosida taqlid qilish, eshitib ko`rib, taktil tebranish his qilib taqlid qilish. Bu usul taqlidga asoslanadi. O`quvchi bor analizatori orqali o`qituvchi namoyish qilganini qabul qiladi va qaytaradi. Taqlidning hamma bosqichlarida talaffuzni korreksiyalashda u yoki bu talaffuz ko`nikmalarini dastlabki shakllantirishda qo`laniladi.

Mexanik usul. Bunda o`qituvchi o`quvchini biron bir nutq a`zolariga ta`sir etib zarur harakatni yuzaga keltiradi. Bu usuldan foydalanib bir qancha mashqlar o`tilgandan keyin o`quvchini ongida kinestezik ta`sir izlari saqlanib qoladi va o`quvchi mexanik usulsiz kinestezik va eshituv nazoratiga tayangan holda tovushlarni takrorlashga harakat qiladi. Bu usilda o`qituvchi o`zi bilmagan holda harakatlarni bajarishi bu usulning xususiyati hisoblanadi.

Aralash usul. Bu usulda yuqoridagi ikki usul uyg`unlashadi. O`quvchi o`qituvchining nutq a`zolarini harakatini ko`rib o`z nutq a`zolarini harakatlantiradi.

Bu usulni bola to`liq amalga oshirolmaydi, bunda o`qituvchi ung yordam berishi zarur. O`quvchi o`qituvchi taklifi asosida u yoki bu nutq organlar harakatini ishlab chiqaradi. O`qituvchi talab qilayotgan tovushni to`g`ri talaffuz qilishga yordam beradi.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan ta`lim tizimiga alohida e`tibor berilmoqda. Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalarining bilim sifatini oshirish, ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish va bu yerda ta`lim olayotgan bolalarni to`laqonli



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

sog`lom jamiyatga integratsiya qilish bo`yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan „Zamin Education`` sinflari. Fond xabariga ko`ra, bu yerda o`quvchilar axborot texnologiyalari bo`yicha ko`nikmalarni egallaydi, Scratch, Arduino, Minecraft dasturlash tillari va robototexnika asoslarini o`rganadi.

Loyihani 2021-yilda amalga oshirish davomida 234ta kompyuter va 18ta interaktiv doska eshitish qobiliyati zaif va kar bolalar uchun 18ta ixtisoslashtirilgan maktabning barchasiga o`rnatildi. „Zamin Education`` sinflari uchun zamonaviy metodologyiga ishlab chiqilgan bo`lib, maktab o`qituvchilari ushbu metodlarga tayangan holda bolajonlarning dars jarayonlarini o`zlashtirishiga yordam beradilar.

Tayyorlov va 1-sinflarda yakka mashg`ulotlarning yillik rejasi o`quvchilarni tovushga o`rgatishga mo`ljallangan. O`quv yili boshida eshitish kabineti mudiri va yakka mashg`ulot o`qituvchisi tomonidan olib borilgan ikki haftalik o`rganish davri ish mazmuni tayyorlov va 1-sinflarda ancha boshqacharoq. Bu o`ziga xoslik kar va zaif eshituvchi bolalarning yosh xususiyatlari va maktab ta`limiga moslashib ketishi bilan bog`liq. Bu yoshdagi bolajonlar hali mustaqil bo`lmaydi, yangi muhitga o`rganib ketishida kimgadir muhtojlik sezadi. Shuning uchun tekshirish usullari o`yinga yo`naltirilgan hamda tez-tez o`rganuvchan vaziyatlarga tayyor bo`lishi oldindan talab etiladi. Shu bilan bog`liq ravishda tayyorlov va 1-sinflarda yakka mashg`ulotning ish rejasi asosan „Tovush qo`yish`` ga yo`naltiriladi. Ikki yil davomida bolalar egallayotgan til qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tovushlarning hosil bo`lish o`rni, usuli hamda ovoz va shovqinning ishtirokini eshitib, eshitib-ko`rib, ko`rib, his-qilib, sezib talaffuz qilishga o`rgatadilar.

Xulosa o`rnida shuni aytishim kerak har bir eshitishda nuqsoni bo`lgan bola uchun yakka mashg`ulot muhim ahamiyatga ega bo`lib, nutqni o`zlashtirish osonlashadi. Bu mashg`ulotlarda bolaga yoqadigan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Eshitishida muammosi bo`lgan bola boshqa sog`lom bolalardan bir muncha farqli ravishda yangi muhitga adaptatsiya hosil qilishi va mashg`ulotlarni o`zlashtirishi qiyinroq kechadi. Yakka mashg`ulotlarda o`qituvchi o`quvchini ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etishga va bolada yangi ko`nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Nazarova.D.A. Mamarajabova.J.M. ``Maxsus pedagogika-surdopedagogika``. 2020-yil.
2. Hamidova.M.U. `` Maxsus pedagogika``. 2018-yil.
3. Ayupova.M.Y. ``Logopediya`` darslik. 2019-yil.
4. Mo`minova.L.R. ``Bolalarni logopedik tekshirish va o`qitish``.1992-yil.

